

## **MORFEMANING TURLARI**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha ta'lim fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi  
540-21-guruh talabasi  
**Abdulqosimova Ra'no**  
**Komiljonova Xurshida**  
**Eshpo'latova Shaxlo**  
**Ergasheva Madina**  
**Turdialiyeva O'g'iloy**

**Anotatsiya:** Bu maqolada tilshunoslik bo'limlaridan biri Morfemika hamda uning turlari morfemalar, affiksial morfemalar, ularning ma'nolari haqida qisqacha malumot beramiz.

**Kalit so'zlar:** Morfemika, morfema, affiksial morfema, o'zak morfema, so'z yasovchi morfema, shakl yasovchi morfema, so'z o'zgartiruvchi morfema, sodda affikslar, murakkab affikslar. Morfemika tilshunoslik bo'limlaridan biri bo'lib, morfema haqida o'rganadigan fan. Morfemikada so'zning eng kichik ma'no anglatmaydigan qismini o'rganamiz. Shu ma'no anglatmaydigan qismi morfema deyiladi. Morfemalar har bir so'z doirasida o'ziga xos ma'no ifodalovchi birlikdir. Ular bo'laklarga bo'linishi ma'no yo'qolishiga olib keladi. Demak morfema so'zning eng kichik ma'no anglatmaydigan qismidir.

### **KIRISH**

Morfemalar 2ga bo'linadi : O'zak morfema Affiksial morfema O'zak morfema-nutqda yakka holda qo'llanilishi mumkin bo'lgan va mustaqil lug'aviy ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan morfemalar.

Masalan: ishchi, ishla, ishchan, ishsiz so'zlaridagi ish o'zak morfema hisobladi. Affiksial morfemalar esa – nutqda yakka holda kelmaydigan, lug'aviy ma'no ifodalamaydigan, o'zakka qo'shilib, leksik yoki grammatik ma'no shakillantirishda ishtirok etadigan morfemadir. Masalan: daraxtzor bunda daraxt so'ziga zor affiksini qo'shsak lug'aviy ma'nosi o'zgaradi. Masalan : daraxtlarimiz shu kabi ko'rinishda affiksial qo'shimcha qo'shganimizda so'zimiz gramatik ma'no jihatdan o'zgargan

bo'ladi. Affiksial morfemalar vazifasiga ko'ra quydagi uch turga bo'linadi: So'z yasovchi morfemalar Shakl yasovchi morfemalar So'z o'gartiruvchi morfemalar

### **Morfema variantlarini misollar asosida ajratish**

Morfema nutqda turli variantlarga ega bo'ladi. Misol sifatida qaratqich kelishigi invariant shaklining variantlarini kuzataylik:

- a) poetik variant: *bog'in mevasi*;
- b) tarixiy variant: *manim*;
- v) dialektal variant: *kitobting*;
- g) fonetik variant: *mening*.

Kelishik paradigmasiga kirish huquqiga faqat invariant shakliga ega.

**So'zlar tarkibidagi affiksial morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini farqlash.** Morfemalarda ham shakl va ma'no munosabati barqaror. Morfemalarning miqdoran cheklanganligi bu munosabatning keng qamrovliligidan dalolat beradi.

So'z yasovchi affikslar- o'zga qo'shib, yangi ma'noli so'z hosil qiladi. Ular ko'pincha bir turkumdagi so'zlardan boshqa bir turkumga mansub yangi so'z yasaydi. Masalan: yoz, qish - ot yozgi, qishki - sifat. Shuningdek ular bir so'z turkum doirasida ham so'z yasashi mumkin. Masalan: bog' - bog'bon, ish - ishchi. So'z yasovchi affikslar birdan ortiq qo'shimchalar qo'shib yangi so'zlar hosil qiladi va bunday affikslar tilning leksik qatlamini boyitadi. Masalan: bog'-bon-chi-lik. Shakl yasovchi affikslar - (lug'aviy shakl yasovchilar). Ular so'zning lug'aviy ma'nosini bir ozgina o'zgartirib, unga qo'shimcha ma'no yuklaydigan, ammo hech qanday yangi so'z hosil qilmaydigan morfemalardir. Masalan: kitoblar, kitobcha kattaroq, kattagina. So'z o'zgartiruvchi affikslar -so'zlarning nutqda boshqa so'zga nisbatan sintaktik munosabatini, aloqani ko'rsatuvchi affiksial morfemalardir. Ya'ni ular so'zga qo'shilganda kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalarida o'zgaradi. Masalan: kuzning havosi, kitobni o'qidim. Affikslar tuzulishiga ko'ra 2 turga farqlanadi. Sodda affikslar Murakkab affikslar Sodda affikslar faqat bir affiks qo'shimcha qo'shimcha qo'shilish orqali yuzaga keladi. Masalan: gulli, paxtazor. Murakkab affikslar esa ikki yoki undan ortiq affiks

qo'shimchalar birikishi orqali yuzaga keladi. Masalan : hunarmandchilik Ba'zan affikslar morfemalarning odatdagi tartibida o'zgarishlar yuz berishi ham mumkin. Masalan : aka+m+lar=akalarim ko'r +di+ng+lar=ko'rdilaring Morfema termenini tilshunoslikka polyak-rus tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene. Lekin morfemaning I.A.boduen de Kurtane talqini bilan ushbu hozirgi talqin o'rtasida bir qator farqlarni uchratish mumkin.

Morfemik polisemiya keng tarqal-gan. Bu morfemalarning polifunksionalligiga bog'liqdir. Misol sifatida –*chilik* affiksini olaylik. Darslik va qo'llanmalarda uning quyidagi uch ma'nosi farqlanadi:

1. Asosdan anglashilgan narsa etishtiriladigan sohani ifodalovchi ot:  
*paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, uzumchilik.*

2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot:  
*pishiqchilik, mo'lchilik, arzonchilik.*

3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot:  
*ulfatchilik, tirikchilik, dushmanchilik.*

Aksariyat morfemalar polisemik tabiatlidir.

**Morfemik omonimiya.** Shakldosh morfemalar omonim morfemalar deyiladi. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfemalar orasida ham bo'lishi mumkin.

1. Derivatsion omonimiya:

-ki I: *turtki, tepki, ko'chki* (ot yasovchi).

-ki II: *ichki, kechki, ustki* (sifat yasaydi).

2. Grammatik omonimiya:

-(i)sh I: *borish (bormoq), kelish(kelmoq), ketish(ketmoq)* (harakat nomi shakli).

-(i)sh II: (birga) *yuvish*, (birga) *tarash*, (birga) *ishlash* (birgalik nisbat shakli).

3. Derivatsion-grammatik omonimiya:

-(i)m I: *yig'im, terim, sig'im* (ot yasovchi morfema).

-(i)m II: *uyim, kitobim, soatim* (egalik morfemasi).

**Morfemik sinonimiya.** Barcha tur morfemalar ma'no-doshlik munosabatida bo'ladi. Shu boisdan *derivatsion sinonimiya* hamda *grammatik sinonimiya* farqlanadi.

**Derivatsion sinonimiya.** Derivatsion morfemalarning bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalashi *derivatsion sinonimiya* deyiladi. Masalan, sifat yasovchi *-li, -dor, -ser, -ba* morfemalari o'zaro sinonim: *savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat* kabi. Biroq ma'nodoshlik morfemalararo to'liq emas, balki ayrim ma'no qirralari orasidadir. Ya'ni bir morfema ikkinchi morfema bilan barcha ma'nolari asosida sinonim bo'la olmaydi.

Bugungi kunda derivatsion sinonimiya va derivatsion darajalanishni farqlash tilshunosligimizda tadqiqini kutayotgan muammolardandir.

**Grammatik sinonimiya.** *Nonni eng - nondan eng, uyga jo'namoq - uy tomon jo'namoq* kabi hodisalarda grammatik ma'nodoshlik mavjud.

**Morfemik antonimiya.** Morfemik antonimiya derivatsion morfemalar orasidagina mavjuddir. Unga misol sifatida *-li* va *-siz* affikslarini keltirish mumkin: *andishali-andishasiz, barakali-bebaraka, baxtli-baxtsiz*.

## MUHOKAMA VA NATIJA

Til hamisha taraqqiyotdadir. Bunda ustuvorlik, asosan, tilning leksik sathiga beriladi. Ijtimoiy hayotning o'zgarishi leksikada keskin o'zgarishlar yasaydi. Yangi so'zlarning vujudga kelishi, so'zlarning «tirilishi», iste'moldan chiqib ketishi kabilar bunga misoldir. Tilning fonetik va grammatik sathlari ijtimoiy o'zgarishlarga befarq bo'lib, unda faqat vaqt o'z izlarini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan o'zgarishga uchragan ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida, masalan, o'zbek tilining morfologik strukturasi, sintaktik qurilishida o'zgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalilidir. Lekin asrlar davomida bunday o'zgarishlar bo'lib turadi. Tilning fonetik va grammatik sathlari ijtimoiy o'zgarishlarga befarq bo'lib, unda faqat vaqt o'z izlarini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan o'zgarishga uchragan ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida, masalan, o'zbek tilining morfologik strukturasi, sintaktik qurilishida o'zgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalilidir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda ekin asrlar davomida bunday o'zgarishlar bo'lib turadi. Masalan, eski o'zbek tilida *-gu* affiksi yordami bilan yasalgan ish otiga *-m, -ng* affikslarining qo'shilib, ushbu so'zning kesim ekanligini ko'rsatgan: *Men ko'rgum* tipida. Bu hozirgi o'zbek tilida kuzatilmaydi. *Ul, alar, andin, anda, ko'zun ko'rub* (ko'zi bilan ko'rib) kabi qator so'zshakllar fikrimizning dalilidir. Yoki eski o'zbek tilida *Bu sening, Bu mening* ko'rinishidagi sintaktik qurilma mavjud bo'lgan. U hozirgi kunda u *Bu seniki, Bu meniki* ko'rinishiga ega.

## **REFERENCES**

- 1 S Rahimov , B Umirzoqov , „Hozirgi o'zbek adabiy tili“, Toshkent-2003 ,68-bet O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
- 2 O'zbek tili grammatikasi 1- tom G'.Abdurahmonov va boshqalar 1972, 216-bet.
- 3 A'zim Hojiyev, Ne'mat Mahkamov ma'ruzlari
- 4.,„Zamonaviy o'zbek tili“ H.G'.Ne'matov va boshqalar 2008